

Tadjibayev Baxram Ruziyevich,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Oliy matematika" kafedrası dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi

FIKRLASH XUSUSIYATLARI INTELLEKTUAL MEHNATGA LAYOQATLILIKNING IFODASI SIFATIDA

UDK: 37

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_2_5](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_2_5)

TADJIBAYEV B.R. FIKRLASH XUSUSIYATLARI INTELLEKTUAL MEHNATGA LAYOQATLILIKNING IFODASI SIFATIDA

Ushbu maqolada, turli xususiyatlarga tayangan inson aqliy faoliyati muammosining dolzarbligi ko'rsatilgan. Shunga binoan, inson ongli ravishda o'z fikrlari, hissiyotlari va hislarini boshqarishi muhim omilidir. Inson o'z tafakkurining mustaqillik, kenglik, keng qamrovlik, moslashuvchanlik, tanqidiylik va boshqa xususiyatlari bilan turli amaliy faoliyati jarayonida yangi qiziqarli g'oyalar to'plash qobiliyatiga ega bo'ladi. Ijtimoiy vaziyat o'zgarishining natijasida ishlab chiqarish samaradorligi ham o'zgaradi va shunga mos ravishda paydo bo'lgan muammolarni ijodiy yechilishiga imkon tug'iladi. Bundan tashqari, inson uchun muhim bo'lgan bilim orttirish jarayonlari faollashadi. Optimal motivatsiyani shakllanishi, aqliy mehnat usullari va qoidalariga ongli yondashish, qiziqish va ehtiros, maxsus shakl va uslublar yordamida inson o'z-o'zini tashkil qilishi va fikrlashini faollashtirishi – uning tafakkurining yuksalishiga hissa qo'shadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: fikrlash faoliyati, fikrlash xususiyatlari, intellektual mehnat, kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasi, aqliy ijodiy intilishlar, kompetentlik, kompetensiya, professional tafakkur, mehnat samaradorligi.

ТАДЖИБАЕВ Б.Р. КАЧЕСТВА МЫШЛЕНИЯ КАК ПОКАЗАТЕЛИ СПОСОБНОСТИ К ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМУ ТРУДУ

В настоящей статье обосновывается актуальность и значимость изучения мыслительной деятельности людей опирающаяся на разнообразные качества и свойства их мышления. Важным фактором в этом плане является умение управлять своими мыслями, эмоциями и ощущениями в нестандартных условиях, в которых может оказаться человек. Способность человеческого мозга генерировать интересные идеи представляет собой результат различных форм его практической деятельности с использованием качеств мышления, таких как например, самостоятельность, широту, глубину, гибкость, критичность мышления и другие. Динамика социальной ситуации приводит к изменению производственной эффективности, что мотивирует к творческому решению задач, связанных с этой ситуацией. Кроме этого, важными являются особенности функционирования и уровень развития всех познавательных процессов у человека. Развитию мышления способствуют: формирование оптимальной мотивации, осознание приёмов и правил умственного труда, интерес и увлечённость, умение самоорганизовываться и активизация мышления с использованием специальных форм, методов.

Ключевые слова и понятия: мыслительная деятельность, качества мышления, интеллектуальный труд, уровень развитости когнитивных процессов, умственные творческие устремления, компетентность, компетенции, профессиональное мышление, эффективность труда.

TADZHIBAYEV B.R. ASSOCIATE PROFESSOR, DEPARTMENT OF HIGHER MATHEMATICS, TASHKENT STATE TECHNICAL UNIVERSITY, UZBEKISTAN MENTAL QUALITIES AS AN ABILITY INDICATORS FOR INTELLECTUAL WORK

This article substantiates the relevance and significance of the study of mental activity of people based on the various of mental qualities. The ability to manage your thoughts, emotions and sensations in unusual situations is an important factor in this regard. Human brain ability of thinking, such as, independence, breadth and depth, flexibility, criticality and others represents the result in his practical activities. Dynamics of the social situation lead to change of production efficiency and it motivates to creative problem solving, related to this situation. Besides this, important are features of functioning and state of the art of all human cognitive processes. Contributes to the development of thinking formation of optimal motivation, awareness of techniques and rubs of mental labor, interest and passion, ability to self-organize and activation of thinking using special forms, methods.

Key words and concepts: mental activity, mental qualities, intellectual work, level of development for cognitive processes, mental creative aspirations, competence, competencies, professional thinking, labor efficiency.

Kirish.

Fikrlash miya faoliyati bilan bog'liqdir, ammo uning abstraksiyalarni birlashtirish qobiliyati insonning amaliy hayot shakllarini, til me'yorlarini, mantiq, madaniyatini o'zlashtirish davomida hosil bo'ladi.

Chuqur va keng fikrlashni o'rganish uchun, inson ongli ravishda o'z fikrlari, hissiyotlari va hislarini boshqarishi orqali o'zini nostandart vaziyatga solishi natijasida erishadi. Insonlarning fikr yuritishi ular aql faoliyatining turli xususiyatlariga asoslangan bo'lib, shu jumladan, masalan, amaliy yo'nalgan kasbiy fikrlashga doir fikrlash tezligidir. Aytish mumkinki, vaqt chegaralanganligi sharoitida, muayyan vaziyatdan chiqib ketish uchun mutaxassisni o'ylab ko'rishiga imkoni bo'lmaydi. Aqlning tanqidiyligi, mustaqilligi, fikr yuritish kengligi, chuqurligi, moslashuvchanligi va boshqalar ham shunday xususiyatlarga tegishli. Ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi ishlab chiqarish samaradorligining o'zgarishiga olib keladi va shuning bilan bog'liq muammolarni mustaqil ijodiy yechilishi uchun imkonlar pog'onasiga aylanadi. Fikrlashning tezligi ta'sirida asosiy g'oyaning yoniga, paydo bo'lgan, tarkibiy fikrlar ham qo'shiladi. Ijodiy jarayonlarning o'z-o'zini tartibga solish tezligi esa maqsadli standartlarni o'zboshimchalik bilan o'zgarishiga bog'liq. Yuksak darajali o'zini o'zi boshqarishning asosiy masalasi quyidagidan iborat: ushbu vaziyatda qanday ish tutish kerak, va uning uchun nima qilish zarur?

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar bilan birga inson o'z aql qobiliyatlarini foydali ishlar uchun

qo'llashga tayyorligi katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, insonning bilim olish jarayonining rivojlanganlik darajasi va o'ziga xos xususiyatlari alohida e'tiborga sazovor bo'lib, uning bilim faoliyatining oshishi davrida shakllanadi. Optimal motivatsiyani belgilash, aql mehnati usullari va qoidalarini o'rganish, qiziqish va ehtiros, o'z-o'zini tashkil qilish va fikrlashni faollashtirishga qaratilgan maxsus uslublar va mashqlarni qo'llash – inson fikrlash qobiliyatini shakllanishiga yordam beradi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Fikr yuritishimiz o'z taassurotlarimizga asoslangan bo'lib, ko'p hollarda muammoni har xil tomondan o'rganishimizga xalaqit beradi. Ham shuni ta'kidlab o'tish kerakki, insonning fikrlash qobiliyatida uning yoshi, o'qimishlilik darajasi, ish joyi, miyasining tuzilishi va funksiyasini o'zgartirish qobiliyatiga ta'sir etuvchi tanasining genetik xususiyatlari kabi omillarni qanchalik o'rni muhim. Shu savollarga inson fikrlashining barcha xususiyatlari yordamida javob topilishi mazkur mavzuning dolzarbligini anglatadi.

Asosiy vazifalar:

Ushbu tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- mavzuga doir maxsus adabiyotlarni o'rganish;
- fikrlash xususiyatlari insonning intellektual mehnatga layoqatlilikining ko'rsatkichlari sifatida ifodalash;
- fikrlashning tanqidiyligi, tezligi, mustaqilligi, kengligi, chuqurligi, moslashuvchanligi va

boshqa xususiyatlarni shakllantirishga doir yondashuvini ishlab chiqish.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish uchun muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, umumlashtirish va sintez usullaridan foydalanildi. Shu maqsadda, davriy matbuot va ilmiy-amaliy anjuman materiallarida chop etilgan eng so'nggi nashrlar bilan muallif tanishib chiqqan. Ushbu nashrlardagi nazariy materiallar muallif tafakkuridan o'tkazilgan holda bir butunlikda bog'lanib qayta ishlangan. Mazkur mavzuga tegishli turli xulosalar qayta ishlash jarayonida zarur bo'lgan natijalar sifatida alohida belgilanib berilgan.

Tadqiqot maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – fikrlash jarayonining xususiyatlarini batafsil tasvirlab berish va ular samarali qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan rivojlanganlik darajasini belgilab berishdan iborat.

Asosiy qism. "Qachonki xohish-istak bo'lsa, bas, imkon topiladi!" Boshqa so'z bilan aytganda, masalani muvaffaqiyatli yechish uchun kuchli xohish-istak va kuchli fikrlash zarur. Insonning aqli – qobiliyati u yoki bu vaziyatga moslashish, yangi ma'lumotni o'zlashtirish, yangi bilim, qobiliyat, ko'nikmalarni o'rganish va ularni samarali qo'llash bilan bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlari orqali aniqlanadi. Ular his-tuyg'u va taqdimotlar, idrok, tasavvur va fikrlashdan iborat bo'lgan insonning kognitiv qobiliyatlaridan tuzilgan. Shular yordamida bir qator muammolar tez va darhol o'z yechimini topadi.

Insonning aqliy qobiliyatiga ta'sir qiluvchi bir nechta omillar mavjud:

- idrok etilgan ma'lumotni tushunish;
- tushunish qobiliyati, eslab qolish va dolzarb ma'lumotni takrorlash;
- sog'lom fikrga asoslangan vaziyatni obyektiv baholab to'g'ri yechim topish qobiliyati.

Insonni aqliy qobiliyati – yoshi o'tgan sari o'zgaradi. "Child Development" jurnalining 2011 yildagi nashrlarida keksa yoshli odamning sinchiklab ma'lumot tekshirishi sababli, uning o'zlashtirish tezligi sustroq bo'lishi qayd etilgan.

Inson miyasi tuzilishi va o'z funksiyasini o'zgartirishi xususiyatiga ega bo'lgani uchun, aqliy qobiliyatlar keksa yoshda ham shakllanishi mumkin va o'zgarishlik xossasi mavjud, yangi kognitiv muammolarga moslashgan holda saqlanib qoladi.

Shubhasiz, vaqt o'tishi bilan, insonning axborotni qayta ishlash qobiliyati sekinlashib,

miyasining ba'zi funksiyalari zaiflashadi, ammo uning ozuqalanishi, aql trenajyorlarida muntazam aktiv mashqlar, jismoniy mashg'ulotlar va hayotga bo'lgan qiziqish kabi muayyan shartlar keksalikka kognitiv sustlikni ancha orqaga suradi.

Insonlarning aqliy faoliyatidagi individual farqlar, ular fikrlashlarini turli xususiyatlariga ta'sir qiladi. Fikrlash mustaqilligi – inson tomonidan yangi vazifalarni ilgari surish va hech kimning yordamisiz ular yechimini topishdan iboratdir¹. Mustaqil fikrlaydigan inson boshqa odamlarning tajriba, bilimi, fikrlarini ongli ravishda o'zlashtirgan holda ijodiy qo'llaydi va shuning bilan birga muammolar yechimi uchun o'z yo'llari va usullarni izlaydi.

Inson e'tiboridagi muammoni ko'z ilg'amas jihatlari bilan birga bir butunlikda ko'ra olishlik qobiliyati tafakkur doirasi kengligini ifodalaydi².

Tafakkurning bunday shakliga ega bo'lgan shaxs qiziquvchanlik, keng fikrli va turli sohalarda faoliyat yuritishga qodirligi bilan ajralib turadi. Bunga qarama-qarshi xususiyat – tafakkur doirasining torligi.

Murakkab masalalarni ajratib olish, ular ildizi, sabablarini topib, vaziyatni qanday rivojlanishni ko'ra bilishlik – inson tafakkurining chuqurligini anglatadi.

Asosiy ma'no – sabablarni ko'ra olmaslik evaziga, mayda va kichik narsalarga e'tibor qaratish – yuzaki fikrlashga tegishli bo'lib tafakkurning chuqurligiga qarama-qarshidir.

Muammolarni yechishda qo'llanadigan avvalgi texnika va usullar ta'siridan xoli bo'lgan va vaziyat o'zgarishiga binoan harakatlanuvchi erkin fikrlovchi insonning tafakkuri moslashuvchanligi xususiyatiga egadir³. Bunday xususiyatga qarama-qarshi bo'lgan stereotiplik xossasidir.

¹ Kusmiyati K. (2002) Analysis of independence and creative thinking skills of students through assignment. J.Pijar MIPA, Vo1.1 N 6, November 2022:754-758. DOI: 10.29303/jpm. v17i6.4232

Keith E., Stanovich, Richard F. West (2008). On the Relative Independence of Thinking Biases and Cognitive Ability. J. of Personality and Social Psychology, Vo1, N4, 672-695. DOI: 10.1037/0022-3514.94.4.672

² Edward De Bono (2009). CoRT1 Breadth Thinking Tools: The Complete Learning, Planning, and Teaching Guide for Teachers, Administrators, and Schoolers. DeBono for Schools/The Opportunity Thinker, 098167173X, 9780981671734, 191p.

³ Сорокопуд Ю.В., Козьяков Р.В., Матюгин Н.Е., Амчиславская Е.Ю. Гибкость мышления как востребованный «мягкий навык» (SOFT SKILLS) современных специалистов. / Ж. Мир науки, культуры, образования. Т6 (85), 2020, ISSN 1991-5497, 400-402 с.

Zudlik bilan yangi noma'lum vaziyatni anglab, tahlil qilib va unga to'g'ri yechim topish inson fikrlashining tezligini ifodalaydi. Ushbu xususiyat bilim, fikrlash qobiliyatining rivojlangan darajasi va individual aqliy faoliyat tezligi bilan bog'liq (asabiylar jarayonlarning harakatchanligi)¹. Unga zid bo'lgan xususiyat fikrlash sekinligidir. Fikrlash tezligi va shoshqaloqlik turli tushunchalardir. Masalani keng qamrovi bo'lmagan, chala va yuzaki ko'rib chiqish asosida tezlik bilan chiqarilgan xulosa shoshqaloqlikga tegishlidir. Eng muhimi – opponentlardan tezroq fikrlashni o'rganishdadir.

Har tomonlama sinchiklab o'rganiladigan va ilgari suriladigan xulosa-takliflarni tekshirish, o'zi va o'zgalarning fikr-mulohazalarini obyektiv baholash, shuningdek, o'z g'oyalarini mutlaq deb bilmaslik kabilar fikrlashda tanqidiylknnig muhim belgilaridandir.

Inson intellektual faoliyatining samaradorlik kaliti yuqorida keltirilgan fikrlash xususiyatlari va aqliy qobiliyatlar bilan birgalikda aktiv qo'llanilishga bog'liqdir. Bundan tashqari, inson tafakkuri har doim uning temperamenti, xarakteri, o'ziga xosligi va individual qobiliyatlari ta'siri ostida qolaveradi.

Inson o'zining amaliy faoliyati jarayonida erishgan foydali bilimlarini uzoq vaqt xotirasida saqlab yurishi va yangi g'oyalar, qarashlar, e'tiqod o'zgarishiga qarshi chiqishligi – fikrlashning inertligi bilan bog'liq².

Masalan, inertlik xususiyatiga asoslangan inson hukmlarning mustahkamligi uchun kurashish ham uning tafakkuridan kelib chiqadi. Agar taraqqiyot jarayonida yangi muammoli masalalar yuzaga kelib, ularning yechimini topish uchun avvalgi g'oya-bilimlar ishlamasa, u holda inertlik inson tafakkuri va psixologiyasining ijobiy o'zgarishiga qarshilik ko'rsatadi. Inson, avval o'zlashtirgan bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashga noqobiliyidan uning aktiv aqliy ijodiy fikrlashiga jiddiy to'siqlik qiladigan ham inertlikdir.

Topilgan yechimlar kutilmaganda nostandart bo'lishi va fikrlash amallari bilan harakatlarni g'ayrioddiy kombinatsiyasiga asoslangan xususi-

yat o'tkir fikrlash deyiladi. O'tkir fikrlash qanday namoyon bo'ladi? O'tkir fikrlash inson o'zini ishini yoki kasbini nihoyatda yaxshi egallagan, o'z sohasini chuqur biladigan, yuqori malakaliligida namoyon bo'ladi³.

Oldindan hozirlanmasdan, lozim kelgan vaqtning o'zida mavjud muammoni yechimini topishga qaratilgan faoliyatga tayyorlik qobiliyati faol fikrlash deyiladi. Faol fikrlash bilimni amaliy qo'llanishi bilan ifodalanadi⁴. Professionalning faol fikrlashi kasbiy va shaxsiy yuksalishga yo'nalgan ijtimoiy muhitni tashkil qilish bilan bog'liq. Rahbarning faol fikrlashi qo'l ostidagi xodimlar oldiga muammoli masalalarni qo'yish va ulardan mustaqil yechim topishni talab qilishdan iborat. Rahbar boshqaruv faoliyatini xodimlariga yechim topish vakolatini taqdim etishi orqali amalga oshiradi.

Inson tafakkurining kuchi – belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida fikrlash amallari va qobiliyatlarni jamlash bilan bog'liq. Ichki (shubhalar) va tashqi (ijtimoiy muhit va opponentlar qarshiligi) to'siqlarni yengishda o'zini yaqqol namoyish etadi⁵. Kuchli fikrlash, kasbiy tayyorlov va malaka oshirish jarayonida shakllanib, maqsadga yo'naltirilgan inson xatti-harakati bilan bog'liq bo'lib, boshqaruv va nazorat ostida ham bo'lishi mumkin. Kuchli fikrlash ijodiy kasbiy fikrlashning poydevoridir. Bunday fikrlashning tarkibiga kirgan bilimlar masalalarni yechilishini ijodiy va talab etilgan natijaga erishishlikni kafolatlangan qilib beradi. Bundan tashqari, kuchli fikrlash yangi samarali yechimlarni izlash yo'lida turgan psixologik to'siqlarni bartaraf qilishga va insonda o'z-o'zini takomillashtirish, yuksalishga intilishni uyg'otadi.

Fikrlashning kongruentlik xususiyati opponentga yaqin va tushunarli bo'lgan aqliy qobili-

³ Фрейд З. Острота и её отношение к бессознательному. Т.9. - Изд-во ВЕИП, 2019, 304 с., ISBN 978-5-91681-035-6.

⁴ Титов А.А. Мышление как процесс и как деятельность: анализ философско-психологических исследований мышления // Педагогика и психология образования. 2020. № 1. С.180-197. DOI: 10.31861/2500-297X-2020-1-180-197

Давыдов В.В. Деятельностная теория мышления. - М.: Изд-во: Науч.мир, 2005., 239 с., ISBN 5-89176-316-8 (в пер.).

⁵ Тимофеева Ю.Ф. Системно-модульный подход в формировании творческой личности учителя технологии: Дис... д-ра пед.наук: 13.00.08. - Ижевск, 2000, 239 с. РГБ ОД, 71:01-13/69-2

¹ Ляпина Т.Е., Осипова И.С. Возрастные и половые особенности скорости и гибкости мышления//Огарёв – Online. 2020. N11(148). С.1-6.

Канеман Д. Думай медленно... решай быстро. – Москва: АСТ, 2014. – 653с. – ISBN 978-5-17-080053-7

² Костромина С.Н. Справочник школьного психолога. - М.: Изд-во: Астрель: 2012, 512с. ISBN 978-5-271-44092-2

yat va faoliyatdan iboratdir¹. Kognitiv kongruentlikning asosida birgalikda ishlab chiqilgan va qabul qilingan yechim yotadi va shuning bilan birga, boshqaruv jarayonini ijobiy o'tishini rag'batlantiradi: rahbar o'ziga kongitiv xos bo'lgan ta'sir o'tkazish vositalarini tanlab oladi. Insondagi intellektual jarayonlar va uning holati sinxronlashishi natijasida ma'nolar yaqinligi va umumlashgani kuzatiladi.

Ma'no-mazmunlar bir manbadan boshqa manbaga ko'chib o'tadi yoki yuqoriroq darajani egalaydi.

Muammolar tashqi amaliy faoliyatda o'z yechimini topishligi fikrlashning amaliy xususiyatini ifodalaydi. Bunday xususiyat vaqtning qisqaligi sharoitida maqsadlarni belgilash, reja va loyihalarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Amaliy fikrlashda ko'rilayotgan yechimli vaziyatga o'zgarishlar kiritilishi bilan birga faoliyat subyekti ham o'zgarishi kuzatiladi². Shu fikrlash turi natijasida, turli sharoitda va kerakli natija olishga qaratilgan jarayon shakllanadi. Amaliy fikrlashning individualligi har qanday sohadagi amaliy kompetentlikning muhim shartidir.

Muammoni tahlili davomida inson ahamiyatsiz tashqi jihatlarga chalg'imasdan, o'z ongida belgilangan alomatlar tizimini ushlab turish qobiliyati uning aqliy barqarorligini ifodalaydi³. Ushbu xususiyat impulsivlik va stressga qarshilikni o'z nazorati ostida ushlab turish bilan bog'liq. Mazkur xususiyatni yuksalish darajasi ichki motivatsiya va kasbiy mahoratni kuchliligidan kelib chiqadi.

Yuqori malakali mutaxassisning o'zini o'zi boshqarish, xotirjamlik va aqliy barqarorlik xususiyatlari yordamida ajoyib yechimlar topilishi va ularni maqsadga muvofiq qo'llanilishi ta'minlanadi.

Inson tafakkurining qat'iyligi uning fikrlash jarayoni belgilangan maqsadga muvofiq aniq va qat'iy bo'lishi bilan bog'liq.

Ushbu xususiyat o'z ichiga qat'iyatlilik, xotirjamlik va xohish-iroda kabilarni olgani bilan birga ilk

g'oyani oldinga surish yo'lida inson faolligi tavsiylaydi.

Tafakkurning tejamkorligi – inson aqlining rivojlanganligini ko'rsatkichi bo'lib, amaliy faoliyatida esa kasbiy zakovatidir⁴. Ushbu xususiyat aqliy quvvatni kamsarfli, fikrlash jarayonini kam mehnat talab qilishligini ta'minlab beradi. Tafakkurning tejamkorligi deganda insonning o'z intellektual faolligi doirasida masala yechishdagi namoyon bo'lgan oqilona yondashuv va obyektiv oddiylik tushuniladi.

Tafakkurning assotsiativligi – bir masalani yechish jarayonida orttirilgan bilimlar boshqa masalani yechilishida ham ijodiy qo'llanilishi va turli hodisalar orasida bog'lanishni yaratishdan iboratdir. Ushbu xususiyat tajribaga qaratilgan bo'lib, mo'ljallangan maqsadga erishish vositasi bilan bog'liq vaziyatning tarkibiy qismlarini belgilashga yordam beradi⁵.

Tafakkurning realistikligi – voqelikni noto'g'ri idrok qilish tizimining ta'sirida bo'lmagan, real vaziyatdan kelib chiqqan holda fikrlash va faoliyat yuritish qobiliyatidir⁶.

Tafakkurning tranzitivligi – butun tizim tarkibidagi belgilangan qismlarni muvofiqlashtirish va ular ustida aniq aqliy amallar va harakatlarni bajarish qobiliyatidir⁷.

Yuqorida keltirilganidek insonning fikrlash xususiyatlari va rivojlanganlik darajasi kishining aqliy ijodiy faolligini, ya'ni intellektual mehnatga moyilligini, shu jumladan, muayyan muammoni ko'ra bilish, intellektual va xulq-atvorning moslashuvchanligini namoyon qilish, vaziyatni oldinga siljitish, kommunikatsiyalarni yo'lga qo'yish qobiliyatini ko'rsata oladi.

⁴ Хейне П. Экономический образ мышления / П.Хейне, - 2-е изд. – М.: «Дело» при участии изд-ва «Catallaxy», 2002. – 132 с.

⁵ Кашапов М.М. Психология творческого мышления: учебное пособие. – Москва: ИНФРА – М., 2024, 436 с. + Доп.материалы [Электронный ресурс], Высшее образование, DOI 10.12737/22371.

⁶ Кашапов М.М. Психология творческого мышления: учебное пособие. – Москва: ИНФРА – М., 2024, 436 с. + Доп.материалы [Электронный ресурс], Высшее образование, DOI 10.12737/22371.

⁷ Кашапов М.М. Психология творческого мышления: учебное пособие. – Москва: ИНФРА – М., 2024, 436 с. + Доп.материалы [Электронный ресурс], Высшее образование, DOI 10.12737/22371.

¹ Роджерс Карл Р. Становление личности. Взгляд на психотерапию. – М.: Изд-во: Прогресс. 2004, 235 с. – 18 bob.

² Карпов А.В., Корнилов Ю.К. Практическое мышление. – Изд-во Ярослав. Гос.ун-та. Ярославль, 2007, 440 с., ISBN: 978-5-8397-0585-2

³ Bagas Bantara. Сила ума: овладение ключами к успеху. Достижение высот через устойчивость ума и эмоциональный интеллект. – Изд-во: Al Khawarizmi, 2014, 60 с.

Xulosa va takliflar.

Inson tafakkurining rivojlanganlik darajasi quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi:

- yangi g'oyalar ishlab chiqishga qaratilgan inson ongini psixologik yo'naltirish;
- g'oyalarni to'plash, tafakkurni inersiya ta'siridan xalos etish, ijodiy masalalarni yechishda tanish fikrlash usullaridan kechish;
- qiziqarli va turli uyg'unlashgan g'oyalarni qo'shish, boshqalarning g'oyalarini takomillashtirish va sifatli o'zgartirish;
- amallar yetarliligining shartiga baho berish;
- zarur bilimlarni o'zgartirish va ular yordamida masalalar yechimiga ijodiy yondashish, kerakli natijalar chiqishini kafolatlantirish.

Inson tafakkurining rivojlangan xususiyatlari, yangi samarali yechimlar ehtirosi yo'lida turgan psixologik to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi va kishining o'z-o'zini intellektual takomillashini va rivojlanishiga imkon tug'diradi. Bunday xilma-xil xususiyatlarga boy bo'lgan tafakkur egasi tizim tarkibidagi qismlarni o'zaro bir-biriga bog'liqligini, ta'sirchanligini, yuksalishini ko'ra oladi, sabab va ta'sir zanjirlarni his qila oladi, masala yechishdagi yashirin imkoniyatlarni topa oladi, aniqlangan faktlar turlanishini ishlab chiqib va ular orasida mavjud qonunlarni belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kusmiyati K. (2002). Analysis of independence and creative thinking skills of students through assignment. J.Pijar MIPA, Vo1.1 N 6, November 2022:754-758. DOI: 10.29303/jpm.v17i6.4232
2. Keith E., Stanovich, Richard F. West (2008). On the Relative Independence of Thinking Biases and Cognitive Ability. J. of Personality and Social Psychology, Vo1, N4, 672-695. DOI: 10.1037/0022-3514.94.4.672
3. Edward De Bono (2009). CoRT1 Breadth Thinking Tools: The Complete Learning, Planning, and Teaching Guide for Teachers, Administrators, and Schoolers. DeBono for Schools/The Opportunity Thinker, 098167173X, 9780981671734, 191 p.
4. Сорокопуд Ю.В., Козьяков Р.В., Матюгин Н.Е., Амчиславская Е.Ю. Гибкость мышления как востребованный «мягкий навык» (SOFT SKILLS) современных специалистов. // Ж. Мир науки, культуры, образования. Т6 (85), 2020, ISSN 1991-5497, 400-402 с.
5. Ляпина Т.Е., Осипова И.С. Возрастные и половые особенности быстроты и гибкости мышления//Огарёв – Online. 2020. N11(148). С.1-6.
6. Канеман Д. Думай медленно... решай быстро. – Москва: АСТ, 2014. – 653с. – ISBN 978-5-17-080053-7
7. Костромина С.Н. Справочник школьного психолога. – М.: Изд-во: Астрель: 2012, 512с. ISBN 978-5-271-44092-2
8. Фрейд З. Острота и её отношение к бессознательному. Т.9. – Изд-во ВЕИП, 2019, 304 с., ISBN 978-5-91681-035-6.
9. Титов А.А. Мышление как процесс и как деятельность: анализ философско-психологических исследований мышления // Педагогика и психология образования. 2020. № 1. С.180-197. DOI: 10.31861/2500-297X-2020-1-180-197
10. Давыдов В.В. Деятельностная теория мышления. – М.: Изд-во: Науч.мир, 2005., 239 с., ISBN 5-89176-316-8 (в пер.).
11. Тимофеева Ю.Ф. Системно-модульный подход в формировании творческой личности учителя технологии: Дис... д-ра пед.наук: 13.00.08. – Ижевск, 2000, 455 с. РГБ ОД, 71:01-13/69-2
12. Роджерс Карл Р. Становление личности. Взгляд на психотерапию. – М.: Изд-во: Прогресс. 2004, 235 с.

13. Карпов А.В., Корнилов Ю.К. Практическое мышление. - Изд-во Ярослав. Гос. ун-та. Ярославль, 2007, 440 с., ISBN: 978-5-8397-0585-2
14. Bagas Bantara. Сила ума: овладение ключами к успеху. Достижение высот через устойчивость ума и эмоциональный интеллект. - Изд-во: Al Khawarizmi, 2014, 60 с.
15. Хейне П. Экономический образ мышления / П.Хейне, - 2-е изд. – М.: «Дело» при участии изд-ва «Catallaxy», 2002. – 704 с.
16. Кашапов М.М. Психология творческого мышления: учебное пособие. – Москва: ИНФРА – М., 2024, 436 с. + Доп.материалы [Электронный ресурс], Высшее образование, DOI 10.12737/22371.